

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 2-son)



FILOLOGIYA
PHILOLOGY

SUJET VA MOTIVGA XOS TAMOYILLAR

Ergashev Maqsud,

Nukus davlat pedagogika instituti

O‘zbek adabiyoti kafedrası doktoranti.

E-mail: MaqsudErgashev@umail.uz

tel: 91 235 77 95

Abstrakt: Maqolada motiv va syujet masalasiga adabiyotshunoslikdagi qarashlar, badiiy adabiyotda ijodkorning asarni yaratishdagi, badiiy asardagi qahramonlar motivi, motiv va syujetga xos tamoyillari o‘rganilgan. Shuningdek, badiiy asar syujeti va undagi tasvirda inson hayoti va ruhiyatining harakatlarini yuzaga keltiruvchi motivlar, ularni kundalik voqelik shakllarida umumlashtirilishi, motiv va syujetning o‘zgaruvchan tabiatining mohiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Motiv, syujet, lug‘at, unsur, voqea, hodisa, holat, faxriya, kompozitsiya, qahramon, psixologik holat, motivatsiya.

Introduction. Motiv va syujet o‘rtasidagi asosiy bog‘liqlikni e‘tirof etgan A.N.Veselovskiy, A.L.Bem, S.N.Broytman, V.Ya.Propp, O.M.Fraydenberg, V.Tomashevskiy, E.M.Meletinskiy, B.N.Putilov, N.D.Tamarchenko, V.I.Tyupa, amerikalik folklorshunos A.Dandes singari olimlarning ilmiy tadqiqotlarida qamrab olingan.*

Lekin, adabiyotshunoslik ilmidagi “motiv” va “syujet” atamalarining asosiy ma‘nosini aniqlash qiyinligi, bu tushunchalarini o‘rganishning murakkabligi esa ularning yagona talqini va ta‘rifining yo‘qligidadir. Shu sababdan ham adabiyotshunoslar badiiy asar syujeti va motivni turli xil talqin etadilar. Bu qarashlar va talqinlarda ba‘zan masalani turlicha izohlash, ba‘zan bir-birga zid, qarama-qarshi, ba‘zan mohiyat nuqtai nazaridan bir xillik holatlari uchraydi. Ana shularni inobatga olgan holda adabiyotshunoslikdagi motiv va syujet masalasiga aniqlik kiritish zaruriyati yuzaga keldi.

Literature review. “Motiv” atamasini ilk bor adabiy muomalaga Iogann Volfgang fon Gyote o‘zining “Epik va dramatik she‘riyat to‘g‘risida” (1797) maqolasida kiritgan. I.V.Gyotening fikricha motiv - syujet elementi, dinamik va vaziyat birligidir. [6.]

A.N.Veselovskiy o‘zining “Syujetlar poetikasi” (1940) klassik asarida motivlarni bir-biridan mustaqil ravishda turli ibtidoiy qabilalar o‘rtasida o‘xshash turmush sharoitida yaratilishi mumkin bo‘lgan eng oddiy formulalar deb ataydi. [4.6.] Aynan motivda u hodisa formulasini ko‘radi, shuning uchun motiv va syujetni bog‘laydi. A.N.Veselovskiyning

so‘zlariga ko‘ra, motiv “*eng oddiy hikoya birligi*”, syujetning elementar va keyinchalik bo‘linmaydigan “hujayrasi” bo‘lib, u semantik jihatdan ajralmasdir. A.N.Veselovskiy obrazlilikni, bir a‘zolikni, sxematiklikni motiv belgilari deb hisoblagan. Motivlar, uning fikricha, tarkibiy elementlarga ajralishi mumkin emas. A.N.Veselovskiy asosiy motivlarni aniqlashga va ularning kombinatsiyasini syujetlarga aylantirishga harakat qildi. Ilmiy faoliyatining boshida A.N.Veselovskiy folklordagi syujetlarning o‘xshashligi ularning harakati bilan bog‘liq degan fikrga qo‘shilgan bo‘lsa, keyinchalik u faqat motivlar harakatlanishi mumkin degan xulosaga keldi.

S.N.Broytman e‘tirof etganidek, syujet an‘anaviy hikoya motivlarini va “yo‘qotish - izlash – yangilanish” elementlaridan tashkil topgan davriy, siklik voqealar sxemasini to‘playdi, qayta ko‘rib chiqilgan shaklda muallif barqaror motivlardan foydalanadi, ularga ko‘p va ehtimollik ma‘nolari, mualliflik semantikasini beradi, ularni muayyan tarixiy sharoitlarda joylashtiradi. [3.]

Research Methodology. Agar psixologiyada motiv harakatga turtkini anglatga, adabiyot nazariyasida esa syujetning takrorlanuvchi elementi hisoblanadi. Tadqiqotchilar motivning ikki tomonlama tabiatini qayd etadilar:

1. Motiv o‘zgaras (ko‘p matnlarda takrorlanadigan barqaror);
2. Individual (har bir muallifning timsolni gavdalantirish, o‘z g‘oyasini individual tarzda tasvirlash) motivi mavjud.

Motivlar inson tabiatini aks ettiradi. Syujet har safar yangidir. Syujet o‘zgaruvchan narsa, motivlar o‘zgaras, motivlar xalqlar va davrlar bo‘ylab harakatlanadi. Motiv - bu syujet genidir. Demak, syujet voqealar bayonini anglatga, motiv ana shu voqealar bayonidagi takrorlanuvchi elementni anglatadi.

Bu syujet va motiv o‘rtasidagi genetik aloqalar to‘g‘risida so‘z yuritish, ularning hammasini bir manbadan izlash, bizningcha, noo‘rin bo‘lardi. Bir xil mazmundagi syujetlarning bir qator xalqlarda paydo bo‘lishi madaniy muhit, badiiy tafakkurning ibtidosi hamma xalqlarga bir xil kechishi hodisasi bor ekanini ta‘kidlash o‘rinlidir. Badiiy tafakkurning ilk davrdagi o‘xshashligi haqida so‘z yuritish ilmiy tamoyilga mos keladi.

Motiv ikki xususiyatga ega:

1. Takroriylik
2. Bo‘linmaslik

Motiv - harakat, syujet elementi. A.N.Veselovskiyning fikricha, motivlar syujetdan oldin mavjud edi. Keyinchalik so‘z san‘ati rivojining syujet bosqichi keldi. Syujetdan oldingi bosqich - sinkretizm, dastlabki yaxlitlikdir.

Analysis and results. Ma‘lumki, syujet muallifning niyatiga to‘liq mos keladigan ketma-ketlikda tasvirlangan voqealar bayonidir. Demak, syujet epik, dramatik va qisman lirik asarlarda tasvirlangan voqealar va ularni bayon qilish usulidir. Shuningdek, syujet qahramonning shakllanishini, uning ichki dunyosini tasvirlash, jamiyat va umuman borliq qonunlarini

o‘rganish yoki ma’lum bir qahramonda gavalangan qadriyatlar va dunyoqarashning ma’lum tizimini sinab ko‘rish vositasi sifatida qabul qilinadi.

Syujet har doim voqealar rivojida va qahramon xarakterini shakllantirishda to‘liqlikni, kerakli ma’noga erishishni (“tanlash”) nazarda tutadi, chunki eng yuqori ideallar, qadriyatlar berilganligi sababli, ularning mavjudligi barqarordir.

Poetikada har bir asarning, har bir janrning o‘ziga xos motivi bor. Motiv - tabiatning inson oldiga qo‘yadigan savollariga javob beradigan va haqiqatning, ayniqsa, yorqin taassurotlarini aniqlaydigan eng oddiy formuladir. Motiv badiiy ongning eng qadimgi, ibtidoiy shaklidir.

A.N.Veselovskiy tushunchasida yozuvchi fantaziyasining ijodiy faoliyati real yoki xayoliy hayotning “jonli suratlari”ning o‘zboshimchalik bilan o‘yini emas. Yozuvchi motivlar asosida fikr yuritadi va har bir motiv qisman unga genetik singib ketgan, qisman uzoq tarixiy hayot jarayonida namoyon bo‘ladigan barqaror ma’nolar majmuasiga ega. Motiv kategoriyasi xronotop kabi qadimiydir. Motivlar statik va dinamikdir. Motiv kontekstual qiymatdir.

Motiv qiyosiy-tarixiy adabiyotshunoslik va nazariy poetika doirasida turlicha ko‘rib chiqiladi. So‘nggi o‘n yilliklarda motiv atamasining nazariy salohiyatiga qiziqish sezilarli darajada oshdi, bu esa ko‘pincha uni ishlatishda xatolik va kamchiliklarga, nuqsonlarga olib keladi.

Klassik syujetda voqea-hodisalar bayoni sabab-oqibat munosabatlari qonuniyatlari asosida tashkil etilgan mantiqiy hikoya-rivoyatlar tarzida berilgan. Klassik syujet vaziyatni muallif-ijodkor nuqtai nazaridan tushuntiradi. Rus adabiyotshunosi Yu.Manning ta’kidicha: *“Kitobxon ham, o‘quvchi ham badiiy bayonni ijodkorning irodasi bilan “o‘ylab topilgan”, “yaratilgan”, lekin ayni paytda hayot qonunlariga ko‘ra yaratilgan shartini qabul qiladi”*. [9.156.]

Syujetning klassik nazariyasi, umuman olganda, qadimgi Yunonistonda shakllangan. Syujet qurilishining asosiy tarkibiy qismlari voqea va harakatlar ekanligidan kelib chiqadi. Aristotelning fikricha, har qanday epik va dramatik asarning asosini harakatlarga bog‘langan voqealar syujetni tashkil qiladi. Hozirgi zamon estetikasi tomonidan ishlab chiqilgan va takomillashtirilgan syujetning klassik nazariyasi bugungi kunda ham dolzarbligicha qolmoqda. Yana bir narsa, vaqt, albatta, unga o‘z tuzatishlarini kiritdi.

XIX asrda G.Gegel tomonidan kiritilgan kolliziya atamasi keng qo‘llanilgan. Kolliziya (to‘qnashuv) shunchaki hodisa emas. U qandaydir tartibni buzadigan hodisa. *“Kolliziyaning negizida, - deb yozadi Gegel, - buzilish sifatida saqlanishi mumkin bo‘lmagan, ammo yo‘q qilinishi kerak bo‘lgan buzilishdir”*. [5.213.] Gegel syujetni shakllantirish va syujet dinamikasini rivojlantirish uchun buzilish zarurligini mohirlik bilan ta’kidlagan. Ushbu tezis, biz ko‘rib turganimizdek, zamonaviy syujet nazariyalarida muhim rol o‘ynaydi. Aristotelning “tugun va yechim” sxemasi XIX asr nemis adabiyotshunosligida yanada rivojlandi (birinchi navbatda, bu yozuvchi va dramaturg Gustav Freytag nomi bilan bog‘liq) va bir qator tushuntirishlar va terminologik muolajalardan o‘tib, umumta’lim maktabidan ko‘pchilikka tanish va ma’lum bo‘lgan: 1. Ekspozitsiya (voqea boshlanishi kirish); 2. Tugun (asosiy

voqeaning boshlanishi); 3. Voqea rivoji; 4. Avj nuqtasi (kulminatsiya); 5. Yechim. Bu klassik syujet tuzilishi shaklini oldi.

Albatta, syujetning majburiy va ixtiyoriy elementlarni, shartli ravishda, ajratib ko‘rsatish odatiy holdir. Majburiy bo‘lganlar, ularsiz klassik syujetni amalga oshirish mumkin bo‘lmagan: tugun - voqea rivoji - avj nuqtasi (kulminatsiya) - yechimni o‘z ichiga oladi. Majburiy emaslariga bir qator asarlarda yoki ko‘pchiliklarida uchramaydiganlar kiritiladi. Bunga ko‘pincha ekspozitsiya (hamma mualliflar ham shunday deb o‘ylamasa ham), muqaddima, epilog, xotima va boshqalar kiradi.

Umuman olganda, tan olish kerakki, yuqoridagi syujet qolipi, uning mashhurligiga qaramasdan juda ko‘p kamchiliklarga ega. Birinchidan, barcha asarlar, shu jumladan zamonaviy asarlar ham, ushbu qolip asosiga qurilmaydi. Ikkinchidan, bu qolip syujet tahlilini aslo tugatmaydi. Taniqli rus adabiyotshunosi N.D.Tamarchenko: *“Aslida, syujetning bunday “elementlarini” faqat jinoiy (kriminal) adabiyotda ajratib olish mumkindir”* - deya ta’kidlagan edi. [12.43.] Shu bilan birga, aql tarozusi chegarasida fikrlansa ushbu qolipdan foydalanish o‘zini oqlaydi, chunki u bir qarashda xuddi syujet chizig‘ining rivojlanishiga o‘xshaydi.

Konflikt rivoji asosiy ahamiyatga ega bo‘lgan ko‘plab dramatik syujetli asarlar uchun bu qolip ko‘proq qo‘llaniladi. Syujetni klassik tushunish mavzusidagi zamonaviy “variatsiyalar”, qoida tariqasida, adabiyotshunoslarning fikrlari va qarashlarini inobatga olish zaruriyatini tug‘diradi.

Birinchidan, Aristotelning syujetning personajdan nisbiy avtonomligi haqidagi tezisi shubha ostiga olinadi. Aristotelning fikricha, syujet voqealar bilan belgilanadi va unda personajlarning o‘zlari, eng yaxshi holatda, bo‘ysunuvchi rol o‘ynaydi. Bugungi kunda bu tezis shubha uyg‘otadi. Masalan, bu tezisni rus adabiyotshunosi V.E.Xalizev tomonidan berilgan harakat ta’rifi bilan solishtiramiz: *“Harakatlar,- deb yozadi V.E.Xalizev - bu insonning his-tuyg‘ulari, fikrlari va niyatlarining uning qilmishlarida, harakatlarida, nutqida, imo-ishoralarida, yuz ifodalarida (mimikasida) namoyon bo‘lishi”*dir. [13.117.]

Bunday yondashuv ya’ni syujetni klassik tushunish bilan endi harakat va qahramonni ajrata olmaslik aniq. Oxir oqibat, harakat/voqea xarakter bilan belgilanadi. Bu syujetni o‘rganishda olimlarning nuqtai nazarni o‘zgartiradigan muhim urg‘udir. Buni his qilish, bilish uchun oddiy savol beraylik: A.Qodiriyning *“O‘tkan kunlar”* asarida harakat/voqea rivojlanishining asosiy manbai kim/nima? Otabekning Kumushga muhabbatini uning xarakteri rivojlantiradimi yoki aksincha, Otabek xarakteri, uning muhabbat, sevgi, oilaga munosabati aynan shunday syujetni oshkor qilishni talab qiladimi?

Aristotelning qarashlariga ko‘ra, birinchi javob ustunlik qilsa, zamonaviy olimlar ikkinchisi bilan rozi bo‘lishni afzal ko‘rishadi. Zamonaviy adabiyot ko‘pincha tashqi hodisalarni “yashiradi”, og‘irlik markazini, asarning tamal toshini psixologik holatlarga ko‘chiradi.

Bundan tashqari, syujet nimadan iboratligi, uning tahliliga duchor bo‘lgan minimal “harakat qismi” qayerda ekanligi haqidagi savol munozarali, bahsli bo‘lib qolmoqda.

Qarama-qarshi nuqtai nazar rus olimi V.V.Kojinov tomonidan shakllantirilgan. Uning konsepsiyasi o‘sha davrning ko‘plab so‘nggi nazariyalarini hisobga olgan va syujet “*odamlar va narsalarning tashqi va ichki harakatlari ketma-ketligi*” ekanligidan iborat ekanligi e’tirof etilgan. [8.410] Shu bilan birga, bu konsepsiyada imo-ishora syujetning eng kichik “bo‘lagi”ga aylangan va demakki, syujetni o‘rganish imo-ishoralar tizimini talqin qilishdir. Ushbu nazariya shubhaga, ba‘zan chalkashlikka olib kelishi mumkin. Chunki, bir tomondan, imo-ishoralar nazariyasi sizga aniq bo‘lmagan narsalarni ko‘rishga imkon bergani bilan boshqa tomondan, unda har doim syujetni haddan tashqari “maydalash”, katta va kichik chegaralarni yo‘qotish xavfi mavjudligidir. Bunday yondashuvda syujet tahlilini individul uslubiy tahlildan ajratish juda qiyin, chunki unda aslida asardagi yozuvchi uslubi tahlili haqida gap ketmoqda.

Shu bilan birga, asarning imo-ishora tuzilishini o‘rganish juda foydali bo‘lishi ham mumkin. Bunday holda, imo-ishorani harakatdagi xarakterning har qanday holatda namoyon bo‘lishi deb tushunish kerak. Badiiy asarda qahramon nutqi, harakati, imo-ishorasi - bularning barchasi talqin qilish mavzusiga aylanadi.

Imo-ishoralar dinamik (rivojlanuvchi, ya’ni haqiqiy harakat) yoki statik (turg‘un ya’ni o‘zgaruvchan fonda harakatning yo‘qligi) bo‘lishi mumkin. Ko‘p hollarda, bu eng ifodali bo‘lgan turg‘un imo-ishoradir. Shunday qilib, klassik syujet nazariyasining zamonaviy modifikatsiyalari qandaydir tarzda syujet va xarakter o‘rtasidagi bog‘liqlikni tan oladi. Shu bilan birga syujetning birlamchi darajasi: voqeami/harakatmi yoki imo-ishorami to‘g‘risidagi savol ochiq qoladi. Shubhasiz, bildirilgan fikrlardan “barcha holatlar uchun” ta’riflarini qidirmaslik kerak. Ba’zi hollarda syujetni imo-ishora tuzilishi orqali izohlash to‘g‘riroq. Boshqalarida esa imo-ishora tuzilishi kam ifodalangan bo‘lsa, undan kattaroq syujet birliklariga e’tibor qaratib, u yoki bu darajada abstraktlashtirish mumkin. Masalan, T.Qayipbergenov “*Qoraqalpoq dostoni*” trilogiyasida qahramonlarning ichki olamida ro‘y bergan hislar, ichki ishoralarni batafsil ifodalamasdan, ularning tuyg‘ularini ekspressivlikda berib, ehtiroslarini harakat va imo-ishoralariga o‘tkazadi. [15.] Tasvir va ifodaning bu usuli yozuvchiga qahramonlar xarakter qirralarini yoritishga keng imkon beradi, ularning hayotiy, jonli chiqishini ta’min etadi.

Qahramonlarning harakat va imo-ishoralaridagi ekspressivlik xarakter qiyofasidagi boshqa belgilar fonida ifodalanadi. Biroq, bu belgining aniqlanuvchi ma’nosi qahramon “tushgan” va “harakat qilayotgan psixologik vaziyat va xarakterning ruhiy shaxsiyati” asosida ochiladi.

Yozuvchi qahramonlar harakati va imo-ishoralarini tasvirlar ekan, ularning tana a’zolaridan (*masalan, qo‘li, boshi, barmog‘i, iyagi kabilar*) bittasini dominant sifatida ko‘rsatish orqali xarakter xarakati va imo-ishoralaridagi ekspressivlikni ifodalaydi. Bularda faqat qahramonlar qiyofasidagi ekspressivlikkina aks etib qolmay, balki ularning ruhiy holati ham o‘z ifodasini topadi. Harakat va imo-ishoratlarda inson ruhiy olamigina aks etmasdan, uning xarakteri yoinki xarakteriga xos xususiyat namoyon bo‘ladi.

Qahramonlar harakati va imo-ishoralari bir xil bo‘lishi ham mumkin. Lekin bu ularning qiliqlari bir-biriga o‘xshaydi, degani emas. Chunki harakat va imo-ishoralar bir xil bo‘lgani bilan, qahramon ichki dunyosi, xarakteri bilan bog‘liq turli-tuman vaziyatlarda xilma-xil ko‘rinishlarga ega bo‘ladi.

“*Qoraqalpog‘ dostoni*” trilogiyasida qahramonlarning ma’nodor harakat va imo-ishoralarida tana a’zolaridan ko‘proq qo‘l va iyagi ishtirok etadi. Ular fe’lda ifodalanib, aksar hollarda unga ma’lum bir so‘z bog‘lanib keladi va ikkalasi birgalikda qahramon qiyofasi, harakat hamda imo-ishorasidagi ekspressivlikni ifoda etadi. Shu yo‘sinda yozuvchi qahramonlar ichki kechinmasida muayyan o‘zgarishlar ro‘y berganidan kitobxonni ogoh qiladi va ular xarakteriga doir qo‘shimcha ma’lumotlar beradi:

“- Hoy, men ham qiziqman-da, - deb qo‘lini qo‘ydi u. – Oldimda ulkan vazifalar turgan bir vaqtda arzimagan odamlar to‘g‘risida bosh qotirib nima qilaman-a? Menga desa o‘sha Ernazar o‘lib ketmaydimi”. [15.31.]

Keltirilgan bu misol “*Gumrohlar*” romani qahramoni Qoraqum eshonning Xiva vaziriga gapira turib Ernazar olako‘z to‘g‘risidagi o‘ylovlari va ko‘zlagan niyati amalga oshayotgan, omadi chopayotganligini kuchli ta’sirlanib to‘lg‘onishi natijasida beixtiyor yuzaga kelgan tashqi nutqidir.

Qizig‘i shundaki, T.Qayipbergenov Qoraqum eshonning Ernazar Olako‘z haqidagi o‘ylovlarini ichki monolog yoki uning boshqa turlarida bermasdan, aynan muallif nutqida tasvirlaydi. Ya’ni qahramon ichki nutqi o‘ziga xos ifodalovchi va o‘rnini almashtiruvchi vazifasini o‘taydi. Bu xususiyat yozuvchining xarakter yaratishdagi yana bir individual usulidir.

Qoraqum eshonning beixtiyor gapirib, “*qo‘lini bir silkitib*” qo‘yishini yozuvchi o‘z nutqida bergan. Bu harakat qahramon hissiyoti to‘g‘risidagi ma’lumotni asoslash uchun keltirilishi bilan birga, kechinmasida muayyan ekspressiv o‘zgarish ro‘y berganligini ifoda etadi. Xuddi shuningdek, yozuvchi Qoraqum eshonning tashqi nutqi hamda ekspressiv qo‘l harakatida uning Ernazar olako‘z uchun, bosh vazir oldida jar qaziyotganidan kitobxonni ogoh qiladi. Demak, adib Qoraqum eshonning yashirinchasi siyosat yuritish xususiyatiga, xarakteriga xos shumlik, makkorlik va quvlik qirralariga ishora qiladi. Syujet chizig‘ida Qoraqum eshonning asl maqsadi aynan shu xarakter qirralarida namoyon bo‘ladi va u dominant element hisoblanadi.

Demak, yuqorida bildirilgan fikr-mulohazalardan zamonaviy adabiyotda syujet nazariyasi masalasiga aniqlik kiritishda turli-tuman yondashishlar xosligini e’tirof etish va asar syujeti haqida fikr bildirishda, asarni tahlil etishda undagi syujetning dominant elementlarini aniqlash zarurdir.

Motiv va syujet o‘rtasidagi munosabat masalasi motivning predikativ tabiatidan ajralmasdir. Motivning predikat g‘oyasi uning “harakat qilaman” ma’nosidan kelib chiqadi.

Demak, badiiy asar bayonida motiv syujet harakatini yuzaga keltirib, xarakterlar tizimi bilan bog‘liq holda voqeaning shakllanishini ifodalaydi. Aynan voqea asar bayonidagi motivning amalga oshishidir.

Motiv haqida bildirilgan ilmiy qarashlardan diqqatga moliki rus olimi B.N.Putilovning g‘oyasi, ilmiy qarashidir. Uning fikricha: *“Motiv shunchaki syujetni tuzuvchi element, atama emas. Ma’lum ma’noda epik motiv syujet taraqqiyotini dasturlashtirib, belgilab beradi. Bu rivojlanish u yoki bu tarzda motivda beriladi. Motiv modellashtirish sifatlariga ega”*. [10.149.] Bizningcha motivni *“modellashtirish”* ko‘proq hollarda sinkretizm davri namunalariga to‘g‘ri keladi. Ya’ni sinkretizm davri ijod namunalarini modellashtirish imkoniyati ko‘proq. Zamonaviy adabiyotda, ayniqsa, modernizm va postmodernizm yo‘nalishidagi asarlarda syujet chiziqlarining ko‘pligi ulardagi motivlarni modellashtirish imkoniyatini ayrim hollarda cheklab qo‘yadi.

Aytish lozimki, hozirgi adabiyotshunoslikda badiiy asarning syujeti va motivini aniqlash uchun bir qancha tushunchalar va ularning toifalari ishlab chiqilgan bo‘lib, bugungi kunda ilmiy munozara ushbu toifalarni aniqlashtirishga qaratilgan.

O‘zbek adabiyotshunosligi va folkorshunosligida ham motiv hamda syujet masalasi o‘rganilgan. Lekin, to‘g‘risini aytish kerakki, motiv va syujet o‘rtasidagi munosabat masalasi yaxlit holda ilmiy-nazariy jihatdan to‘laqonli o‘rganilgan emas. Biroq, nazariy adabiyotlarda, dissertatsiyalarda, darslik va o‘quv qo‘llanmalarda, ilmiy maqolalarda motiv, syujet tushunchalari (turli talqinlar mavjudligiga qaramasdan) ta’riflanib, misollar bilan dalolatlanib, asoslantirishga intiluvchanlik ustivordir.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, motiv va syujet masalasi adabiyotshunoslar tomonidan ma’lum bir badiiy asar misolida o‘rganish yo‘nalishiga e’tibor kuchlidir. Boshqacha aytganda, o‘zbek olimlari ko‘proq aynan shu yo‘nalishni tanlaydilar. Kuzatishlarimiz ham shu holatni tasdiqlaydi.

Bizningcha, motivlar va syujetlar tarixini, zamonaviy shakliy-mazmuniy ko‘rinishlari o‘rganish muammolari quyidagilardan iborat:

1. Motivlar va syujetlar tarixini sinkretizm davri ijod namunalariga tayangan holda ularni tahlil etib, modellashtirish;
2. Motiv va syujetni asardagi voqea-hodisalar bayon qilinishi tartibidan kelib chiqib tahlil qilish;
3. Ijodkor asarlarining janriy yoki mavzuviy, adabiy oqim yoki davr, umuman adabiy an’analar doirasidagi bog‘liqlikni, aloqadorlikni asardagi voqea/hodisalarni harakatga keltiruvchi qahramonlarining motiv va motivatsiyalari tizimini motivlar va syujetlar negizida aniqlash;
4. Asar tahlilida motiv va syujetning tavsifi ular tabiatining barcha tomonlarini qamrab olishi;
5. Motiv va syujet tavsifining barcha jihatlarida barqaror va o‘zgaruvchanlik xususiyat-belgilariga alohida e’tibor qaratish.

Alohida ta’kidlash lozimki, motiv va syujetni, hatto bitta asar doirasida ham, alohida tahlil qilish ularning matnlararo (intertekstual) tabiatiga zid keladi.

Shunday qilib, motiv va syujetni farqlashda qanday tamoyillarga asoslanish lozim, degan masalani oydinlashtirsak.

Adabiyotshunoslik ilmidagi “motiv” atamasining dastlabki, yetakchi ma’nosini aniqlash qiyin. Shu sababdan ham adabiyotshunoslar badiiy asar motivni turli xil talqin etadilar. Masalan, “Adabiyotshunoslik lug‘ati” kitobida: *“Motivga xos muhim jihatlardan biri muayyan turgunlikka egalikdir. Ya’ni motivlar yarim tayyor holda olinadi: mavjud motivlar aynan emas, o‘zak saqlab qolingani holda yozuvchining badiiy fantaziya imkoniyati va ijodiy niyatidan kelib chiqib turli variantlarda talqin etiladi”*, -deya talqin etiladi. [16.183.] “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da esa: *“Motiv - (fransuzcha “motif”-kuy, ohang) 1. Ad. Syujetning tarkibiy unsuri, asarning asosiy mazmuni, mavzusi”* sifatida izohlanadi. [14.618.]

“Butunni bilish uchun, - deb yozadi adabiyotshunos Jabbor Eshonqul - uni yuzaga keltiruvchi qismlarni bilish kerak bo‘ladi. Shu ma’noda epik asarlarning syujet asosini tashkil etuvchi motivlarni bilmasdan ularning mohiyatini anglash mushkul. Demak, dastlab “motiv o‘zi nima”, degan savolga javob berish lozim. “Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati”da “Motiv syujet tarkibidagi halqalardan biri”, deyilgan. Syujet asar mazmunini tashkil etgan voqealar tizimi bo‘lsa, motiv shu voqelikni yuzaga keltiruvchi asosiy unsur hisoblanadi. Ya’ni epik asar qurilma-strukturasini motivlarsiz tasavvur etish mumkin emas”. [7.]

Adabiyotshunos D.Quronov esa motivni obraz tarzida talqin etib: *“Motiv (motiv obraz) shakliy va mazmuniy jihatlardan muayyan turg‘unlik kasb etgan, bir yoki bir necha ijodkorning asarlarida qaytarilib turishi bilan ularning ijodiy intilishlarini namoyon etib turuvchi obrazdir. Masalan, Cho‘lpon ijodi uchun “yo‘l” obrazi motiv sanalishi mumkin. Ayni shu obraz uning ham she’riy, ham nasriy asarlarida tez-tez takrorlanadi. Yoki Cho‘lpon ijodiga xos bo‘lgan “yulduz”, “yo‘lchi” motivlari 20-30-yillar she’riyatida, xususan, A.Fitrat, Oybek va U.Nosir asarlarida ham uchraydi”*, – deb yozadi. [17.80.] Adabiyotshunos to‘g‘ri ta’kidlaganidek, motiv *“...shakliy va mazmuniy jihatlardan muayyan turg‘unlik kasb etgan, bir yoki bir necha ijodkorning asarlarida qaytarilib turishi bilan ularning ijodiy intilishlarini namoyon”* etuvchi unsurdir. Lekin, nazarimizda motiv obraz emas. Chunki motivning badiiy asarda *“shakliy va mazmuniy jihatlardan muayyan turg‘unlik kasb”* etishiga sabab uning syujetni harakatlantiruvchi asosiy elementi ekanligida. Motiv nafaqat syujetni harakatlantiruvchi asosiy element, balki badiiy asardagi qahramonlar harakatini yuzaga chiqaruvchi, uni rivojlantiruvchi va amalga oshiruvchi unsurdir. Zero, motiv bo‘lmasa syujet bo‘lmaydi.

Shunisi ham borki, badiiy asarning yaratilishiga ham biror motiv – ijodkorni asarni yaratishga undovchi/ta’sir qiluvchi holat ham mavjuddir. Demak, motiv asar yaratilishiga sabab bo‘lgan holat/voqea hamdir. Bunga misol tariqasida mumtoz adabiyotdan ko‘plab misollar keltirish mumkin. Xususan, mumtoz adabiyotdagi asarlarda ijodkorlarning “Kitobning yozilish bayoni” faslining fikrlarimizni dalolatlaydi. Masalan, Xorazmiyning “Muhabbatnoma” asarinig yaratilishiga Oltin O‘rda xoni Jonibekxonning Sirdaryo muzofotidagi hukmdorlaridan biri Muhammad Xojabekning iltimosini motiv sifatida ko‘rsatish mumkin. Asarda “Bayoni voqein

aytur” qismida keltirilgan shoirning faxriyasida qayd etilishicha, Muhammad Xojabek forsiy tilda she’rlar yozib, mashhur bo‘lgan Xorazmiydan: “Bu qish mening yonimda yurib, bizning tilda (ya’ni turkiyda) bir kitob yozsang”, – deb iltimos qiladi:

Ko‘ngul bahrinda ko‘p gavharlaring bor,

Ochunda porsiy daftarlaring bor.

Muhabbat nardini ko‘plardin uttung,

Shakartek til bila olamni tuttung.

Tilarmenkim, bizing til birla paydo

Kitobe aylasang bu qish qotimdo, —

Kim ush eldek kechar ayyomi foni,

Jahonda qolsa bizdin armug‘one. [18.131-132.]

Demak, asarning yaratilishiga xuddi shu holat/vaziyat sabab bo‘lgan. Shu holat/vaziyatgacha Xorazmiyda “Muhabbatnoma” tipidagi/janridagi asar yozishga/yaratishga motiv bo‘lmagan.

Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub”ida asarning yozilish bayoni fasl/qism ko‘rinishida ajratilib ko‘rsatilmagan bo‘lsa ham uning yaratilishiga sabab bo‘lgan holat (motiv) haqida shunday yozadi: “*Bu nav‘ as‘hob va ahbobg‘a intiboh qilmoq va alarni bu nav‘ holatdin ogoh qilmoq vojib ko‘rundiki, har toifa xisolidin vuquflari va har tabaqa ahvolidin shuurlari bo‘lganki, munosib el xizmatig‘a shitob qilg‘aylar va nomunosib el suhbatidin ijtinob vojib bilgaylar va bori el bila maxfiy rozlarin so‘zlashgaylar va shayotin va ins makru firibdin boziy yemagaylar. Va har nav‘ el suhbat va xususiyatiki, alarga havas bo‘lg‘ay, bu faqirning tajribasi alarg‘a bas bo‘lg‘ay. Chun bu maqolatning qulubg‘a mahbublug‘i ma‘lum bo‘ldi, anga «Mahbub ul-qulub” ot qo‘yuldi. Va bu bitilgan favoidning kayfiyati chun bilildi, ani uch qism qilindi.*

Avvalg‘i qism: soir un-nosning af‘ol va ahvolining kayfiyati.

Ikkinchi qism: hamida af‘ol va zamima xisol xosiyati.

Uchinchi qism: mutafarriqa favoid va amsol surati.

Umid ulkim, o‘qug‘uvchilar diqqat va e‘tibor ko‘zi bila nazar solg‘aylar va har qaysi o‘z fahmu idroklarig‘a ko‘ra bahra olg‘aylar, bitguchiga ham bir duo bila bahra yetkurgaylar va ruhini ul duo futuhi bila sevundurgaylar”. [1.3.]

Demak, adabiyotshunos T.Boboev ta’kidlaganidek: “*Mavzuning ochilishi, inkishofi, xarakati asosiy motivlarga yangi, yordamchi motivlar yuklatish ila vujudga keladi*”. [2.478.] Motivlar badiiy asarning syujeti, g‘oyalar olami va mavzusida faol ishtirok etadi. Shuningdek, rus olimi B.N.Putilovning ta’kidlashicha: “*Ular barqaror birliklar bo‘lib, semiotiklikning o‘ta yuqori darajasi bilan tavsiflanadi*”. [11.74–86.]

Alohida ta’kidlash lozimki, badiiy asardagi motivlardan asar kompozitsiyasini, qahramonlar xatti-harakati, psixologik holat va ulardan kelib chiqadigan motivatsiyalarni tahlil qilish uchun foydalaniladi.

Demak, syujet va motivlarni farqlashda quyidagi tamoyillarga asoslanish zarur:

1. Motivlar syujetdan oldin mavjud bo‘lib, syujet bosqichi keyinchalik paydo bo‘lgan. (A.N.Veselovskiy);
2. Motiv – badiiy asarning yaratilishiga sabab bo‘lgan holat/voqea-turtki;
3. Motiv – badiiy asar syujetini, undagi qahramonlarni harakatga yo‘naltiruvchi element-unsur;
4. Motivlar o‘zgarimas va individualdir;
5. Syujet voqealar bayonini anglatga, motiv ana shu voqealar bayonidagi takrorlanuvchi elementdir;
6. Syujetlar murakkab va xilma-xildir;
7. Ular o‘zgaruvchan va har bir badiiy asarda yangidir.

Xulosa qilib aytganda, dunyoda o‘rnatilgan tartibni mustahkamlovchi syujet motivlari nafaqat adabiy kanonik janrlarning asosini tashkil etadi, balki kanonik bo‘lmagan janrlarga ham o‘tadi va ular “janr xotirasi” tarkibiy qismini o‘z ichiga oladi. Syujet motivlar majmuasi sifatida namoyon bo‘ladi. Syujetlar – murakkab chizmalar bo‘lib, ulardagi tasvirida inson hayoti va ruhiyatining harakatlari kundalik voqelik shakllarida umumlashtiriladi. Ularning ikkalasi ham faqat o‘zgaruvchan tarkibni ifodalash uchun shakllardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Алишер Навоий. Маҳбуб ул-кулуб. www.ziyouz.com кутубхонаси. 3-бет
2. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент, “Ўзбекистон”. 2002. 478-бет.
3. Бройтман С.Н. Деканонизация жанров в поэтике художественной модальности // Бройтман С.Н. Историческая поэтика : учеб. пособие. – М.: РГГУ, 2001. — С. 359–383. <http://nashaucheba.ru/v5585/>
4. Веселовский А.Н. Поэтика сюжетов.//Поэтика и генезис фольклора: Проблемная хрестоматия. Вып.2/Сост. С.З.Агранович, Е.Н.Сергеева. –Самара. Изд-во “Самарский университет”, 2003 – Стр. 6.
5. Гегель Г. В. Ф. Эстетика. В 4-х тт. Т.1 – М., 1968-1973. – Стр. 213
6. Гёте Иоганн Вольфганг. Об эпической и драматической поэзии. <https://avidreaders.ru/read-book/ob-epicheskoy-i-dramaticheskoy-poezii.html>
7. Жаббор Эшонкул. Эртақларда туш ва туш мотиви. <https://malumot.ru/ertaklarda-tush-va-tush-motivi>. Ўзбек фольклорида туш ва унинг бадий талқини. – Тошкент: “Фан” нашриёти. 2011 китобидан.
8. Кожин В. В. Сюжет, фабула, композиция // Теория литературы. Основные проблемы в историческом освещении. Роды и жанры литературы. – М., 1964.
9. Манн Ю. Диалектика художественного образа. – Москва, Сов. писатель, 1987. – Стр. 156
10. Путилов Б.Н. Мотив как сюжетобразующий элемент // Типологические исследования по фольклору. – М., 1975. – С. 149.

11. Путилов Б.Н. Веселовский и проблемы фольклорного мотива/Б.Н.Путилов//Наследие Александра Веселовского: Исследования и материалы. – СПб.: Наука, 1992. – С. 74-86.
12. Тamarченко Н. Д. Конфликт // Литературоведческие термины: Материалы к словарю; Вып. 2, – Коломна, 1999. – С. 43.
13. Хализев В. Е. Общие свойства эпического и драматического родов литературы // Введение в литературоведение / Под ред. Г. Н. Пospelова. – М., 1983. – С. 117.
14. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. www.ziyouz.com kutubxonasi. 618-бет
15. Қайипбергенов Т. Сайланма. Уч жилдлик. Қорақалпоқ достони. 1-3-жилд. Роман. – Тошкент, 1983
16. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. –Тошкент. “Akademnashr”. 2010. 183-бет.
17. Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. – Toshkent. Noshir. 2019. 80-bet
18. Vohidov R., Eshonqulov H. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. (Eng qadimgi davrdan XVI asr oxirigacha). – Toshkent. O‘zbekiston yozuvchilar Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, B. 131-132.